

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Gaziyeva

Lirik matnda tagma'no va implikativ paradigma..... 232

ILMIY AXBOROT**M.T.Zokirov**

Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir: nazariy yondashuvlar va O'zbekiston amaliyoti 237

A.B.Eshqurbonova

Nutqda noverbal vositalar: kommunikativ va pragmatik tahlil 241

X.A.Abdulxamidova

Isajon Sultonning "Genetik" romani xronotoplari talqini 246

G.V.Abdullayeva

Majoziy obraz yaratish mahorati..... 250

K.T.Israilova

O'zbek tilining raqamli muhitdagi sofligi: muloqot gigiyenasi qoidalari.....255

A.A.Qayumov

Kitobxon kodi: biometrik kuzatuvlar orqali tahlil.....258

Элементы оглавления не найдены.



UO'K: 821.512.133.09:82-311:82.01

ISAJON SULTONNING “GENETIK” ROMANI XRONOTOPLARI TALQINI**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХРОНОТОПОВ В РОМАНЕ ИСАЖОНА СУЛТАНА «ГЕНЕТИК»****INTERPRETATION OF CHRONOTOPES IN ISAJON SULTAN'S NOVEL “GENETIC”****Abdulxamidova Xikmatoy Axrojon qizi**

Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya*Muallifning “Genetik” romani real va noreal makonda uchraydigan xronotoplar tasvirlagan. Asar genetik olimning shakllanish taraqqiyotida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati orqali dunyo miqyosiga shakllanish omillari tahlil etilgan.***Аннотация***В романе автора «Генетик» описываются хронотопы, встречающиеся в реальном и ирреальном пространстве. В работе анализируются факторы формирования в глобальном масштабе через призму роли образования и воспитания в развитии генетика.***Abstract***The author's novel “Genetic” describes chronotopes found in real and unreal space. The work analyzes the factors of formation on a global scale through the importance of education and upbringing in the development of the genetic scientist.***Kalit so'zlar:** Minbar xronotopi, noreal makon, real makon, Isajon Sulton, “Genetik” romani, xronotop, muallif biografiyasi, qishloq xronotopi.**Ключевые слова:** минбарский хронотоп, ирреальное пространство, реальное пространство, Исажон Султан, роман «Генетик», хронотоп, биография автора, хронотоп деревни.**Key words:** Minbar chronotope, unreal space, real space, Isajon Sulton, “Genetic” novel, chronotope, author's biography, village chronotope.**KIRISH**

Umuminsoniy mulohazalar har qanday ijodkorni milliy adabiyot safidan o'sib chiqib jahon adabiyotiga tomon shakllantiradi. Isajon Sulton asarlari uchun berilgan xalqaro mukofotlar asarlarini jahon adabiyoti durdonalariga aylanayotganining dalilidir. Ijodkor o'zining gumanistik g'oyalarini minbar xronotopi orqali ifodalashi uning “Boqiy darbadar”idagi professor Ziyo yaratgan mahluqning murojaatnoma nutqida ham ko'rinadi. Ziyodan farqli ravishda Genetikning fikrlari gumanizmning sharqona tafakkurdagi ifodasi sifatida tasvirlansa, Ziyo mahluqi murojaatnomasi va o'g'lining maktubi gumanizm hamda borliqni anglashga qaratilgan interpretatsion munosabatlar ko'rinishidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Isajon Sulton qahramonlarini akmeologik nuqtada tasvirlashida bir o'ziga xoslik bor. Bu *minbar xronotopidir*. U haqidagi qarashlarning dastlabkisi Baxtinda uchrasa-da, G.Andersson, E.Vorotnikova, K.Garrison kabilarning qarashlarida ham davom etdi. Bizningcha, bu xronotop jamiyatdagi qarashlarni boshqaruvchi, rivojlantiruvchi, o'zgartiruvchi xronotop shaklidir. Isajon Sulton romanlarida jamiyatdan qarashlari yuksalib zamon va makonlar sinovidan o'ta oladigan fikrlarini muallifning qahramonlari minbardan turib butun bashariyatga tomon aytadilar. Omonga ham xalqaro mukofot topshirilishida uning psixologik holati tasvirlanadi. Genetikning asar yakunida minbar xronotopidagi “Ezgu so'z”ida asarning tub mohiyati yana bir bor gavdalanadi. “Inson, shubhasiz, ulug'dir. Hatto so'nggi onini yashayotgan paytda, ajalning qirmizi shafaqlari oxirgi bor yallig'langanida ham uning bir nafasi bor. U – “Meni kechir”, “Seni yaxshi ko'raman” yoki “Mendan rozi bo'ling”, degan ezgu so'zlarni ayta olishi uchun qoldirilgan nafasdir. Ha, odamzot qalbi o'lmas, ruhi hamdardlik va shafqat tuyg'ulariga to'la ekani bilan muqaddasdir. Shu sababli, barcha

ILMIY AXBOROT

urinishlarimiz mana shu yo'lga – bir-birimizni ulug'lashga, sharaflashga va e'zozlashga yo'naltirilishi shart". "Ajalning qirmizi shafaqlari" iborasi orqali metaforik mazmunda umr bir kunga, umr yakuni esa shu kunning botishida hosil bo'lgan qirmizi shafaqlarga qiyoslanadi. Shafaqning qirmizi ekanligi umri davomida ezgu ishlarni amalga oshirganiga va yana bu ishlar avlodlarda davom etishiga ishora sanaladi. Chunki shafaqning qirmizi rangga kirishi, quyosh botishi va undan so'ng chaqnoq yulduzlar paydo bo'lishi keyingi kun yaxshi ob-havoda davom etishini dalillaydi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

"Genetik" romani yakunida daryo yoqalab ketayotgan yigitchaning toshlar orasidan yana oltin yombi topib olib uni o'zi bilan birga olib, ketishi tasvirlanadi. Bu yombi, shubhasiz, ilm ziyodir. U ilm ziyo egasi bilan doimiy hamrohligi ifodasidir. Genetik bu ilm-ziyoni – "oltin yombini olib, avaylab qo'yniga soladi, o'zini voyaga yetkazgan aziz manzillarga ravona bo'ladi", tasviri endi yashagan manzilidagi ilm-ziyoning qadr-qimmatini anglaguvchilar kashfi uchun o'z qishlog'iga ravona bo'lgan Genetik – Omon tasviridir. Asarga prototip qilib olingan mashhur olim, biologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Abdurahmonov va uning tadqiqotlari zahirida ijodkorning hayotiy voqelikka yondashuvi hamda adabiy-estetik qarashlari turli xronotoplarda tasvirlanadi. Asarda tardu-aksning nasrdagi ifodasini uchratish mumkin. Asarning boshlanishi va yakuni irq bitigidan olingan ayni bir jumla orqali beriladi. Bu ijodkorning genetik iqtidorlar avloddan - avlodga o'tib namoyon bo'lishini va u yana davom etishini o'ziga xos usulda ifodalashidir.

"Ozod" romani voqealari noreal makonda kechadi. Lekin u noreal makonda kechgan zamon orqali odamzot qismatida inson ma'naviy dunyosining asl mohiyatini tasvirlaydi. Unda estetik zaminga xos badiiy-konseptual mohiyat, gumanistik qarashlar, universal xronotop qamrovi, milliy va umumbashariy mental mazmuniy tizim, syujet, motivlar, intertekstual qismlar, obrazlarning tabiati, peyzaj va portreti orqali tasvirlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Keyingi yillarda yaratilayotgan romanlar uslubida epiklik va liriklikning izchil munosabati yetakchilik qilmoqda. Ularda og'zaki va yozma adabiyotning ko'plab janrlari semantik-struktur xususiyatlari mujassam. Demak, roman sintetik tabiati jihatidan ham an'anaviy eposga yaqin turadi. Biroq, roman janri o'z predmeti, ya'ni tasvir etayotgan voqeligi, individual ijodkor e'tiqodi, dunyoqarashi, badiiy konsepsiyasi, hayotiy kuzatishlariga asoslanishi, obrazlari adib yashayotgan zamon, tasavvurdagi kitobxonga yaqinligi jihatidan an'anaviy epos tizimlashgan kanonik belgilariga bo'ysunmaydi. Buni inobatga olmagan ayrim adiblar ("Ulug' saltanat" roman-epopeyasi nazarda tutilmoqda. Islomjon Yoqubov) romanda eposdagi singari tarix va tarixiy o'tmishga ehtiromli munosabat yo'lidan borish natijasida, hayot haqiqatidan uzoqlashib, qahramonlarni bir qadar ideallashtirib qo'yishmoqda. Vaholanki, roman eposdan farqli tarzda, ideal o'tmishni qayta so'zlab berishga emas, alohida inson qismati orqali zamon va makonni ko'rsatish, poetik tahlil va tadqiq etishga asoslanadi. Demak, chinakam yetuk roman yuzaga kelishida ijodkorning e'tiqodi, ma'naviy intellekti va poetik mahorati muhim rol o'ynaydi.

Muallif biografiyasi va hayotidagi ayrim kishilar ba'zan badiiy asarda aks etadi. Ijodkorning olamni anglashiga, uni qayta ishlab tasvirlashiga sabab bo'lganligi uchun ularni o'z asarlariga prototipi mavjud bo'lgan qahramonlar sifatida olib kiradi. Bu muallif va inson xronotopi oralig'idagi hodisadir. Masalan, *"Otamning bor-yo'g'i bitta ko'k to'ni bor. Uzoqdan ekinlar ichida kuymanayotgani ko'rinadi. To'nning yelkasi ilma-teshik bo'lib ketgan. Otam ozg'in, bug'doylar esa bo'liq"*¹. Bu o'rinda ijodkor biografiyasiga oid tasvirlar ifodalangan bo'lib, ijodkor yoshlik yillariga to'g'ri kelgan og'ir turmush tarziga va bu davrda ro'zg'or yukini ortmoqlagan otalar yelkasining hayot ilma-teshik qilganligiga ishora mavjud. Yolg'iz ko'k to'nli ota tasviri yozuvchining otasi (bobosi) Sulton ota bo'lib, "Genetik romanidagi "Bobom" qismli voqeada mosh-guruch soqolli, nonvoy, hudojo'y odam sifatida tasvirlanadi. *"Sakson to'rt yoshida jonini haqqa topshirdi. O'shanda men o'n to'rt yashar bola edim"*, deya ifodalangan voqelik ijodkor biografiyasiga oid ma'lumotni badiiy asarda aks etishidir. Muallifning "Ozod" romanida ham yozuvchi qishlog'ida uchraydigan ishkamlar tasviri biorgafik xronotop sifatida ifodalanadi. *"Hammaning uyida ishkam bor. Terakning yog'ochidan qilingan, issiqda bu yog'och oqarib qoladi – oppoq-oppoq, qizil, qora och yashil*

¹ Генетик. Исажон Султон. – Т.: Янги аср авлоди, 2018.В. – 45.

uzumlar osilib turadi. Odamlar ari yeb ketmasin deb, ularni bo'z latta bilan o'rab chiqishadi"². Har qanday ijodkor yaratgan ijodiy namunada uning ilk hayoti o'tgan qishloq, shahar, ovul tasviri uchrashi aqlga tayin. Bu badiiy asarga biografik va lingvistik nuqtai nazardan yondashishga zamin hozirlaydi.

"Genetik" romanida Omon genetika fani bilan davrlar osha harakatlanadi. Fan bilan suhbat uyushtirish asarning o'ziga xos jihatlaridan biridir. Avvalgi romani "Ozod"da muallif shamolni detaldan obrazga tomon shakllantirgan bo'lsa, "Genetik" romanida qahramonning tarix, botanika, fizika, genetika fanlari bilan suhbat boshqa ijodkorlar ijodida uchramaydigan hodisa hisoblanadi. Fanlar orqali zamon va makon tarangligiga erishadi, ularning imkoniyatlari – muallifning imkoniyati darajasida shakllanadi. Suhbat davomida fanlar go'yoki qahramonga shu fanni o'qitgan o'qituvchi ovozi bilan suhbat quradilar. Ular orqali asar syujeti voqealari davrlar aro harakatlanadi. Voqeani uyushtirishda Omonning bolalik, maktab yoshdagi va undan keyingi xotiralaridan foydalanilgan. Shunday bo'lsa-da, bu tasvirlarda yozuvchining bolalik taassurotlari ifoda etiladi. Davrlararo harakatda ushbu usulning tanlanishi muallifning ifodaviy o'ziga xosligi hisoblanadi. Shuningdek, fan o'qituvchisi sifatida asarga olib kirilgan Abdunazar domla, Hoshimboy domla, Sulton domlalar muallif ta'lim olgan maktabda ishlagan o'qituvchilar hisoblanadi. Ularning prototip sifatida tanlab, nomlarini asarga muhrlaydi. *"Fizika! – Labbay. Quyosh nurini yoyib bera olasanmi? – Marhamat. Quyosh nurining ko'rinadigan spektri bir qancha ranglardan iborat. Chapdan o'ngga qarab, binafsha, ko'k, yashil, sariq, qizil, uzoq-qizil nurlarga bo'linadi, - deydi fizika maktabdagi ustozim Abdunazar domlanning ovozi. – Biologiya, g'o'za fotosintezi uchun eng muhim nur qaysi? Biologiya esa yana bir ustozim – Hoshimboy akaning ovozi bilan javob qaytaradi"*³. Bu o'rindagi "Abdunazar domlanning ovozi", "Hoshimboy akaning ovozi bilan javob qaytaradi" iboralari fanga oid bilimlar bola tafakkuriga fan o'qituvchisi ovozi bilan birga kirib kelishini, u hatto ijod jarayonida ham uni tark etmasligining ifodasidir. Qahramonga tarixga oid bilimlarni "cho'tir muallim" ovozi tomonidan olib kirilishda reallik va ramziylik mavjud. Mustaqillik davrida tarixiy manbalarimiz to'liq yuz ochmagan edi. Uning tadqiqotchilariga nisbatan avval qo'yilgan taqiqlari, tariximizdagi xatoliklarni ifodachisiga "cho'tir muallim" iborasi ishlatilgan, deya talqin etishimiz mumkin. Demak, Omondek dunyo tan olgan olimning shakllanishida mahalliy muallimlarning elementar tushunchalarni to'g'ri anglatganligi, keyinchalik butun jahon genetiklari uni mukofotlashi natija sifatida ko'rsatiladi. Bular esa yozuvchi biografiyasiga oid ma'lumotlarni badiiy asarda aks etishi bilan bog'liq muallif "men"ining inson xronotopi tomon shakllantiruvchi omildir. Isajon Sulton asarlari biosferasida ijodkor romanlari zamon va makoniga xos umuminsoniylik asosidagi, globalizm bilan sug'orilgan milliylikni ko'rish mumkin.

Isajon Sultonning "Genetik" romanida boshqalaridan farqli ravishda tasvirlangan voqealarga ijodkor fanlar tafakkuri hamrohligida makonni va zamoni ifodalashga erishadi. Asar tong xronotopi bilan boshlanib, shu bilan yakunlanadi. *"Tong ota boshladi, so'ng uning izidan yer yorishdi. So'ng quyosh chiqadi, hamma yoq yorug' bo'ldi. Er yigit emaklab bordi, Tangriga yo'liqdi..."* Asar lrg bitigidan olib kirilgan intertekstual jumla bilan boshlanadi. Bunda xronotopning xronos+topos munosabati yuzaga chiqqan. Tong otishi, yer yorishishi, quyosh chiqishi, hamma yoqni yoritgan quyosh va emaklagan er yigit tasvirlanadi. Er yigit Tangriga yo'liqadi. Bu ramziy ma'no Genetik Yaratgan izn bergani uchungina shu kashfiyotlarni amalga oshirganligidan bir dalolat sanaladi. Asarning birinchi qismiga "Er bug'u" va "Teshiktoshdan topilgan bola" qismlarining olib kirilishidan ijodkorning ko'zlangan badiiy niyati – bu o'zbek eli undan-da qadimiyroq ekanligini ifodalash bo'lgan. Bu qadimiylik shunchaki qadimiylik emas, balki asrlar osha o'z fikrlari bilan dunyo ilm fani rivojiga xissa qo'shgan ajdodlarda tiyiqsiz ilm zakoga, g'ayri tabiiy quvvatga ega pir-u valiyalarda yuzaga chiqib kelayotganini asoslash uchun Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek kabi olimlarning qarashlaridan bir birini takomillashtiruvchi havolalar asarga olib kirilgan. Ushbu hodisa reminisensiyaning ikkinchi bir xususiyatini o'zida namoyon qiladi. Unga ko'ra *reminisensiya – adabiy asardagi o'zidan ilgargi adabiy hodisalarni eslatuvchi, ongli ravishda yoki anglanmagan tarzda yuzaga kelgan nuqtalarning bari, adabiyotdagi adabiyot obrazi, mazkur*

² Исажон Султон. Танланган асарлар. Т.: 2017. В. –176.

³ Генетик. Исажон Султон. – Т.: Янги аср авлоди, 2018.В. – 89.

ILMIY AXBOROT

*ma'noda atamaning qamrov ko'lamini kengayadi*⁴. Bunda asardagi qo'shtirnoq ichida yoki qo'shtirnoqsiz berilgan sitatlar, she'riy misralar, obrazlar, g'oyaviy tematik va emotsional motivlar bilan birga boshqa ijodkorlar asarlarini eslatish va ular haqida bildirilgan mulohazalar ham reminisensiyani tashkil etishi izohlanadi. Ijodkor o'z badiiy niyatini "genetik buyuklik"ni isbotlash uchun qadimgi bitiktoshlarga murojaat qiladi va ulardan havolalar keltiradi. Yuqoridagilarning barchasini "badiiy payvandlash" usuli bilan bir nuqtaga genetikaga jamlaydi. Ushbu voqeliklarda peyzajdan keng foydalaniladi. Genetik – Omonning borliq haqidagi tasavvurlari va tafakkur mahsuli yuzaga chiqishida **qishloq xronotopi** yetakchi o'rin tutadi. Yozuvchining "Genetik" romanida qishloq toposi alohida o'ringa ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asarga daryo yoqalab ketayotgan odamning oltin yombi topib olishi, qo'ynidagi yong'oqni chaqmoqchi bo'lgan zamonida yombi parchalanishiga qarata "Yaltiroq bo'lgani bilan hech narsaga yaramas ekan-ku", deya qirg'oqdan tosh topib o'z maqsadiga yetishi dastlabki voqelik sifatida kiritilgan. Romanda ilmga oddiy xalqning munosabati shakllanmaganligi yuqoridagi voqelikda kichik bir detal vazifasini o'taydi. Shuningdek, har narsaning qadriga uni qiymatini to'g'ri baholay olgan insonlar yetishini ifodalovchi oltin yombi xususidagi voqelikdir. Ushbu voqelikning daryo bo'yida kechishi umr daryosining majoziy ifodasi sanaladi. Asar ikki qismdan iborat. U qismlarda bir-biridan sodda va oddiy qishloq odamlari tasviri uchraydi. Ularning tasavvurlarini maktab davrlarida o'qigan fanlarigina biroz o'stirgani seziladi. Asarning 1-qismi "Qishloq. Yoz. Jazirama. Qoq tush mahali baqaterak ostidan zaif bir "puf" yelib o'tadi. U shu makonning mitti epkini. Terak barglarini bir chayqatadi-yu, ariq bo'yiga o'zini tashlaydi. Yana birini suv shabadasi deydilar. Qayrag'ochdan uzoqqa ketolmay, qambar barglar orasida aylanib esadiganियam bor..." tarzidagi xronotop tasviri bilan boshlanadi. Ushbu tasvir orqali asar voqealari qishloq toposida yuz berishi, baqaterak ostida paydo bo'lgan zaif bir "puf" esa Genetik yigit Omonga ishora qiladi. Keyingi o'rinlarda bu *shamol dovulga aylanadi*. Genetik olimning genetika sohasidagi xalqlarning kelib chiqishini aniqlash borasidagi tadqiqotlari fanda buyuk yangilik sifatida qabul etilishini, dastlabki qismdagi ramziy ifodasi sifatida baholash mumkin. Ijodkor bola tasavvuridagi qator voqeliklarni asarga olib kiradi. Masalan, "quyoshning orqasida o'choq borligi, olamdan o'tgan kishilar unga o't qalashi", "Laylatulqadr", "Xizr buva", "ro'za tutish", "Uch chanoqli muhabbat" tasviridir. Bu orqali Genetik olimning tasavvuri shu tushunchalar bilan ulg'aygan bo'lsa-da u o'z tadqiqotlari natijasining yakuniga yeta oldi. Bunga uning hamqishloq kampirning soch tolalaridagi genetik ko'rinishlar va u bilan hamsuhbatga aylangan genetika fani yordam berdi.

XULOSA

Isajon Sulton badiiy tafakkuridagi sharqona tasavvur, umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi asar qahramoni va badiiy talqinlarni milliylik qobig'ini yorib, umuminsoniylik sathlariga ko'tarila olgan. Ijodkorning xronotop yaratish mahorati tasvirning yangi imkoniyatlarini shakllantirishga yo'l ochgan. Bunda ijodkor real badiiy zamon va tafakkur zamoni uyg'unlashuvidan foydalangan. Qahramon zamoni, muallif zamoni va roviyning ifoda zamoni mushtaraklik asosida kuchli badiiy-estetik mohiyat kasb etgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Курунов Д. ва.б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.249.
2. Исажон Султон Асарлар: Роман ва қиссалар. 2-жилд Боқий дарбадар. – Т.: Ф.Фулум. 2017. – 426 б.
3. Исажон Султон насри бадиияти, Т.: 2017. – 322 б.
4. Исажон Султон. Танланган асарлар. Т.: 2017. – 382 б.
5. Генетик. Исажон Султон. – Т.: Янги аср авлоди, 2018. – 384 б.

⁴ Курунов Д. ва.б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.249.